

**TURLI ETNOSLARNING JIZZAX VOHASI BO‘YLAB
JOYLASHUVI XUSUSIDA (QANG‘LI MISOLIDA)**

Eshonqulov Umurzoq Absamat o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Umumiy tarix kafedrasio ‘qituvchisi

ORCID: 0009-0005-1626-2616

[*umurzoqeshonqulov09@gmail.com*](mailto:umurzoqeshonqulov09@gmail.com)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek xalqi tarkibidagi eng katta va qadimiy etnik guruhlardan biri qang‘li urug‘ining o‘rganilish tarixi, qang‘li atamasining kelib chiqishi, qang‘li urug‘ining shahobchalari, ularning geografik joylashuvi bo‘ycha mulohazlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar. *Urug‘, qabila, aymoq, elat, el, xalq, millat, etnoganez, etnik tarix, Qang‘li, turkiy, Toroqli, bolg‘ali, irg‘oqli, joytamg‘ali, O‘g‘uzxon*

Annotation. *This article describes the study history of the Kangli clan, one of the largest and most ancient ethnic groups of the Uzbek people, the origin of the term Kangli, the branches of the Kangli clan, and their geographical location.*

Keywords: *Breed, tribe, race, nation, people, ethnogenesis, ethnic history, Kangli, Turkish, Tarogli, Bolgali, Irgagli, Joytamgali, Oguzkhan.*

Аннотация. *В данной статье рассказывается об истории изучения рода Кангли, одной из самых крупных и древних этнических групп узбекского народа, о происхождении термина Кангли, ветви клана Кангли, их географическом расположении.*

Ключевые слова *.Уруг, племя, аймак, элат, народ, нация, этногенез, этническая история, канглы, тюрки, тароглы, булгали, иргоглы, джойтамгали, огузхан.*

O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o'rganish tarix fanining murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bu hozirgi kunning muhim muammolaridan biri hamdir. O'zbekiston mustaqilligi va o'zbek xalqining etnoma'daniy jihatdan tiklanishi sharoitida uning milliy o'zligini anglashini kuchaytirish uchun teran tarixiy bilim va tarixiy jarayonning etnik rang-barangligida xalqning o'z munosib o'rnini aniq-ravshan idrok etishi katta ahamiyatga ega.¹⁹

Mustaqilik yillarida vatanimiz tarixiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda ayniqsa xalqimizning etnik tarkibi, o'zbek xalqi kelib chiqishi, etnoganezi, urug' va qabilalar tarixi,

¹⁹ Shoniyoov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni . — Toshkent: 2001.- B. 3.

tarkibi, tuzulishi, o'zbek urug'lari geografik jolashuvi kabi masalalarni o'rganishga intilish xalqimiz orasida tabora ortib bormoqda. Dunyoda hech bir millat yagona bir urug' yoki qabiladan tashkil topagandek o'zbek xalqi ham bundan mustosno emas. Tarixiy manbalarda o'zbeklar 92 yirik urug'dan iborat ekanligi qayd etib o'tilgan.

92 o'zbek etnik guruhlarini turli tarixi davrda, turli tarixiy sharoitda O'rta Osiyoga ko'chib o'rtnashishgan fanda bu jaryonlar Migratsiya²⁰ (lotincha: *migratio* — ko'chaman, joyimni o'zgartiraman) atamasi bilan tilga olinadi. Insonlar oziq-ovqat izlab, iqlim o'zgarishlari, tabiyat injiqliqlari, o'zaro urushlar boshqa turli-xil sabablarga ko'ra o'zi yashab turgan makonidan boshqa joyga ko'chishga majbur bo'lgan Tarixda shunday yirik migratsiyalar yuz berganki natijada yirik davlatlar, imperyalar vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Yevroosiyo materigida tutgan jug'rofiy o'rni tufayli Markaziy Osiyo tarixning eng qadimgi davrlaridan boshlab murakkab va ko'p bosqichli mintaqaviy va transmintaqaviy migratsiya jarayonlari jadal borgan xudud sifatida ajralib turadi. Ma'lumki, axolining bir xududdan ikkinchi xududga ko'chishi butun tarixiy davrlar mobaynida shaklan ikki xil — doimiy yoki vaqtinchalik ko'chish tarzida amalga oshirib kelingan²¹.

92 bo'li o'zbek elati qatoriga kiruvchi Qang'li urug'i qabilalar orasida eng qadimgilaridan biridir. U Rashididdin va Abulg'ozi Baodirxonlarda ham katta va qadamiy uruglar sifatida ko'rsatilgan. Abulg'ozi Bahodirxon Xorazmshox davrida 60 ming qang'lining Qashg'ar tomondan Xorazmga ko'chib kelib o'riashib qolgailigini aytadi.

N. A. Aristov qangli qabilasi eng qadimgi turkiy qabilalardan biri deb hisoblash bilan birga, uni eramizdan burungi 159—160 yillardayoq Sirdaryoning chap qirg'origa o'tib Zarafshon vodiysini egallagan va Amudaryo bo'ylab Xivagacha borib yetgan deb ko'rsatadi.


Qang'lilar Samarqand oblastining G'allaorol, Bulung'ur rayonlarida, Sirdaryo oblastining Jizzax va Zomin rayonlarida, Toshkent shahrining atrofida, Farg'ona va Xorazm oblastlarida yashaydilar. Ularning shevasida qipchoq elementlari saqlanib qolishi bilan birga adabiy tilga yaqinlashish xususiyatlari ham ko'p uchraydi. Toshkent, Xorazm va Farg'ona qang'liklari esa o'z joylarining tiliga (dialektiga) mos shevada gaplashadilar. Samarqand oblastidagi qang'liklar quyudagi 4 ta bo'lakka (uruqa) bo'linadi: Toroqli, bolg'ali, irg'oqli va joytamg'ali²².

«Qang'li» so'zining kelib chiqishi va etimologiyasi haqida ham turli fikrlar afsona va rivoyatlar, ma'lumotlar mavjud. Xususan, tarixchi olim A.Pardaevning tadqiqotlarida, XIII

²⁰ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil 506-b

²¹ Mavlonov O'. Markaziy osiyoning qadimgi yo'llari Toshkent 2008 312-B

²² Doniyorov X, O'zbek xalqining shajara va shevalari. - Toshkent, 1968. - B. 90.



asrning ikkinchi yarmida yashab o'tgan tarixchi Rashid - ad - din «qang'li» so'zining kelib chiqishini afsonaviy shaxs O'g'uzxon bilan bog'laydi. Rashid-ad-din tomonidan keltirilgan rivoyatga ko'ra, O'g'uzxon o'z urug' - aymoqlari bilan urushib ularni engan va katta o'ljani ko'lga kiritgan. Ushbu o'lja, boylik shu darajada ko'p bo'lganki, ularni o'z qarorgohiga tashitish uchun xon aravalar yasatgan. Arava turkiyda «qang'li» so'zi bilan ifodalangan. Ushbu voqeadan keyin O'g'uzxon va uning yor-birodarlari qang'li nomi bilan atalganlar. Qang'lilarning barchasi ularning avlodlari ekanligini keltirib o'tadi²³.

Abdulg'oziy Bahodirxon (1644-1664 y) ham qang'li so'zining kelib chiqishini O'g'uzxonning harbiy yurishlari bilan bog'lab, quyidagilarni yozadi: «O'g'uzxon borib Tatarni chobti ... lashkarini qirdi. O'g'uzxonning lashkarining qo'lina ul choqli o'luk mol tushdi kim, yuklamakka kuluk ozlik qildi. Bir yaxshi chibar kishi bor edi. Ul fikr qilib arabani yasadi. Andin ko'rmakcha barcha araba yasadilar. Mollarini yuklab qaytdilar. Arabag'a qaniq deb ot qo'ydilar. Andin ilgari otida yo'q erdi, o'zida yo'q erdi. Aning uchun qaniq tedilar kim, yuruganda qaniq-qaniq qilib ovoz kelur, ani yasagan kishini qaniqli tedilar. Barcha qaniqli eli ul kishining o'g'lonlari turur»²⁴.

Darvoqe, qadimgi turkiy yozuvlar bilimdoni S.M.Malovning ta'kidlashicha, runiy bitiklarda qayd etilgan qan, qanli - so'zlari engil arava ma'nosini anglatgan²⁵. Shuningdek, ta'kidlash joyizki, Turkiyada hozirgacha ikki g'ildirakli arava qang'li deb yuritiladi.

Vizantiya imperatori Konstantin (905-959 y) o'zining «Imperiyaning idora qilish» nomli tarixiy asarida Janubiy Rus cho'llarida yashovchi bijanaklar tarkibida «qang'ar» deb ataluvchi qabila mavjud ekanligini «qang'ar» so'zining ma'nosi - «mardonavorlik», «jasurlik» ekanligini uqtirib o'tadi²⁶.

Qang'li so'zining ifodasi bo'yicha aynan, ushbu ma'nodagi tavsifni Abdulg'oziy Bahodirxon (1644-1664) ham keltiradi. Uning yozishicha: «qaniqning ma'nosi aziz temak bo'lur, tamg'osining suvrati, ya'ni, tamg'osi qo'sh alif shaklida, qushi qoraqarchig'ay»²⁷.

Shunday qilib, tadqiqotlarning ko'rsatishicha, qang'lilar qadimda Sirdaryo bo'ylarida yashashgan va qudratli Qang' davlatiga asos solishgan. X asr o'rtalarida qang'lilarning katta guruhi shimoli-g'arbiy sarhadlariga siljib Emba va Ural daryolari oralig'iga borib joylashgan. XI asrda ularning ko'pchiligi Kichik Osiyo, Bolgariya, Vengriya erlariga o'tib mahalliy aholiga, Volga bo'ylarida qolganlari esa boshqird, tatar xalqlariga singishib

²³ Pardaev A. Jizzax bekligi - O'rta Osiyo xonliklari davrida (XVI asrdan - XIX asrning 60 - yillarigacha). tar. fan.nom. diss.. Tosh. - 2004. -B. 76.

²⁴ Abdulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi turk. T: «Cho'lpon», 1992. -B. 21.

²⁵ Malov S.YE. Pamyatniki drevnetyurkskoy pis'mennosti. Tekst` i issledovaniya, M-L., 1951.: 41.

²⁶ Bagryanarodniy K. Ob upravlenii gosudarstvom //Izv. Gos. Akademii istorii material'noy kul'turi. M-L., 1934. - S. 17.

²⁷ Abdulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi tarokima. T: «Cho'lpon», 1995. -B. 23.

ketganlar. Bu paytda qang'lilarning boshqa bir katta guruhi esa Talas va chu daryolari vodiysi hamda Balxashning janubi-g'arbiy sohillariga o'rnashganlar.

XII asrda qang'lilarning katta qismi Sirdaryo bo'ylariga qaytib kelgan va O'rta Osiyo davlatlari, xususan, xorazmshohlar davlati ichki siyosatida faol ishtirok etgan²⁸. Qang'lilar Zomin tumanida, G'allaorol (K. Shoniyozov o'z tadqiqotlarida G'allaorol qang'lilarini sariq qang'lilardan ekanligiga urg'u beradi²⁹) tumanining Qang'li, Sherqong'li, Qorong'ul qishloqlarida va Jizzax shahrining Sangzor daryosiga tutash havzalarida yashab kelmoqdalar.

Qang'li urug'I ko'pgina millatlarning (o'zbek, qozoq, boshqird, qoraqolpoq, qirg'iz) etnik tarkibiga kirib uyg'unlashib hozirgi Markaziy Osiyo mamlakatlarining ko'pida qang'li urug'ini xalqlarni uchratishimiz mumkin.

Qang'li urug'I hozirgi paytda ko'proq Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Sirdaryo bo'ylarida, Samarqand va Buxoro, Qoraqolpoq, Boshqirdiston, Selingorad, Kuchukto'v viloyatlarida istiqomat qiladi. Xatto, hozirgi qadar Zomin tumanida "Qang'li" nomida qishloq mavjud bo'lib aosan shu urug'ga mansub kishilar yashedi³⁰.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki qadimiy xalqlardan biri bo'lgan o'zbeklar juda ko'p etnik guruhlardan tashkil topgan Tarixiy manbalarda o'zbeklar 92 yirik urug'dan iborat ekanligi qayd etib o'tilgan bo'lib bu urug'lar o'z navbatida yirik shaxobchalarga, shaxobchalar yana mayda bo'laklarga, bo'laklar to'plarga, to'plar ota va sulolalarga bo'linib ketadi. Maqolamizning xotimasida shuni alohida ta'kidlab o'tmoqchimizki, xalqimizning etnik guruhlarini aniqlash bilan bir qatorda, uning etnik tarixini o'rganib, yoshlarimizni ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini bilan yoritib berish bugunning dolzarb vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni . — Toshkent: 2001.- B. 3.
2. [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil 506-b
3. Mavlonov O'. Markaziy osiyoning qadimgi yo'llari Toshkent 2008 312-B
4. Doniyorov X, O'zbek xalqining shajara va shevalari. - Toshkent, 1968. – B. 90.
5. Pardaev A. Jizzax bekligi - O'rta Osiyo xonliklari davrida (XVI asrdan - XIX asrning 60 - yillarigacha). tar. fan.nom. diss.. Tosh. - 2004. –B. 76.
6. Abdulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi turk. T: «Cho'lpon», 1992. -B. 21.

²⁸ A.Pardaev. Jizzax bekligi - O'rta Osiyo xonliklari davrida (XVI asrdan - XIX asrning 60 - yillarigacha). tar. fan.nom. diss.. Tosh. - 2004. –B. 77.

²⁹ Shoniyozov K.SH. Qang' davlati va qang'lilar. -T., 1990. -B. 123-128.

³⁰ Qobilov N. 92 bovuvi o'zbek eli.- Toshkent: 1997. – B. 47

7. Malov S.YE. Pamyatniki drevnetyurkskoy pis'mennosti. Tekst` i issledovaniya, M-L., 1951.: 41
8. Bagryanarodniy K. Ob upravlenii gosudarstvom //Izv. Gos. Akademii istorii material'noy kul'turi. M-L., 1934. - S. 17.
9. Abdulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi tarokima. T: «Cho'lpon», 1995. –B. 23.
10. A.Pardaev. Jizzax bekligi - O'rta Osiyo xonliklari davrida (XVI asrdan - XIX asrning 60 - yillarigacha). tar. fan.nom. diss.. Tosh. - 2004. –B. 77.
12. Shoniyozov K.SH. Qang' davlati va qang'lilar. -T., 1990. -B. 123-128.
13. Qobilov N. 92 bovuli o'zbek eli.- Toshkent: 1997. – B. 47

